

## LUQMON BO'RIXON IJODIDA RUHIYAT TASVIRI TALQINI

**Mohira Sadullayeva**

(Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada XX asrning so'nggi choragi va hozirgi davrda yaratilgan o'zbek nasrida voqelikni falsafiy-ruhiy tahlil qilish, qahramon ruhiyatining tubsiz va qorong'u qatlamlariga nazar tashlash, inson umrining mazmun-mohiyati haqida chuqur mulohaza yuritish tamoyili kabi masalalar o'zbek nasrinining taniqli vakili Luqmon Bo'rixonning "Xizr ko'rgan yigit" yoxud "Chorbog' qo'riqchisi" qissasi tahlili misolida ochib berilgan. Unda qahramonlarning ruhiyati, ichki kechinmalari voqealar silsilasi, monolog, dialoglar orqali oydinlashgan.

**Kalit so'zlar:** nasr, epika, qissa janri, qissachilik, badiiy mushohada, voqelik, obraz, monolog, dialog, ruhiy tasvir, ruhiyat, qahramon ruhiyati, psixologizm, badiiy mahorat, ijodkor mahorati.

**Аннотация:** В данной статье философско-духовный анализ действительности в узбекской прозе, созданной в последней четверти XX века и в настоящий период, заглядывающий в бездонные и темные пласти психики героя, и принцип глубокой рефлексии над смыслом человеческая жизнь рассматриваются в узбекской прозе. Это раскрывается на примере анализа рассказа известного представителя Лукмона Борихана «Мальчик, увидевший Хизра» или «Хранитель ручья». В нем раскрывается психика и внутренние переживания персонажей проясняются через ряд событий, монологов и диалогов.

**Ключевые слова:** проза, эпос, жанр рассказа, повествование, художественное наблюдение, действительность, образ, монолог, диалог, мысленный образ, психика, психика героя, психологизм, художественное мастерство, творческое мастерство.

**Annotation:** In this article, philosophical-spiritual analysis of reality in Uzbek prose created in the last quarter of the 20th century and in the present period, looking into the bottomless and dark layers of the hero's psyche, and the principle of deep reflection on the meaning of human life are discussed in Uzbek prose. It is revealed on the example of the analysis of the story of the well-known representative Luqmon Borikhan "The Boy Who Saw Khizr" or "The Guardian of the Stream". In it, the psyche and inner experiences of the characters are clarified through a series of events, monologues, and dialogues.

**Key words:** prose, epic, story genre, storytelling, artistic observation, reality, image, monologue, dialogue, mental image, psyche, hero's psyche, psychologism, artistic skill, creative skill.

XX asrning so'nggi choragi va hozirgi davrda yaratilgan o'zbek nasrida voqelikni falsafiyruhiy tahlil qilish, qahramon ruhiyatining tubsiz va qorong'u qatlamlariga nazar tashlash, inson umrining mazmun-mohiyati haqida chuqur mulohaza yuritish tamoyili kuchaydi. Bunday asarlar yaratishda Luqmon Bo'rixon, Murod Muhammad Do'st, Tog'ay Murod, Xayriddin Sultonov, Xurshid Do'stmuhammad kabi ijodkorlarning o'rni sezilarli darajada.

Psixologiya sohasida o'z maktabini yaratgan olim S.L.Rubinshteyn badiiy asarda inson ruhiyatining tasviri borasida shunday deydi: "Ichki hayoti bilan hisoblashib yashovchi har qanday odam bosib o'tgan yo'lini tahlil qilish uchun ortga qarar ekan, ongida umrining alohida betakror, shukuhli onlari yorqin kechinmalar sifatida chuqur iz qoldirganligi bilan bog'liq xotiralar uyg'onadi. Qahramon psixologiyasini tasvirlar ekan, so'z rassomlari aynan uning kechinmalari o'sish-kamolotga erishishdagi individual yo'lini hayotining burilish pallalari sifatida yoritishga intilishlari bejiz emas. Ittifoqo, inson kechinmalari bu uning real hayotining nosubyektiv tomoni, shaxs umr yo'lining subyektiv aspektidir. "[1.]

Qahramonlar ruhiyatini tasvirlash, xarakter yaratish mahorati, obrazlar xilma-xilligi borasida Luqmon Bo'rixonning o'ziga xos badiiy mahorati bor. Uning qalamiga mansub "Xizr ko'rgan yigit", "Sirli muallim", "Quyosh hali botmagan" kabi bir qator qissalari adabiyot olamida o'z kitobxoniga ega. U an'anaviy qissachiligidan qo'llanilgan ichki monolog, o'y-mulohaza yuritish, g'azab, xatti-harakatdagi ritmik o'zgarish kabi inson psixologiyasida yuz beradigan holatlarni o'ziga xos bir yo'sinda tasvirlaydi. Yozuvchi mahorati shundaki, u boshqa ijodkorlar singari ruhiy holatlarni tafsilotlari bilan birma-bir bayon qilib o'tirmay, urg'uni eng avj nuqtalariga beradi.

Inson ruhiyatini ochishda san'atkor mahorati va mas'uliyatining o'rni to'g'risida Abdulla Qahhorning o'zi shunday yozgan edi: "Psixologizm kishilarning ichki dunyosiga, ularning latif-zarif tomonlari va go'zalligiga yaxshi e'tibor qilish to'g'risida jiddiy o'ylab ko'rish fursati yetdi. Bu yozuvchilik mahoratining eng muhim jihatidir[1;]".

Qissa janri «qahramon ruhiyatidagi murakkab holatlarni, ijtimoiy turmushdagi chigal voqealarni tasvir etish bilan boshqa epik janrlardan farqlanadi». [1. 85.] Bu farq Luqmon Bo'rixon qissalari qahramonlari xarakterida ham ko'zga yaqqol tashlanadi. Uning "Xizr ko'rgan yigit" yoxud "Chorbog' qo'riqchisi" qissasida qahramonlarning ruhiyati turlicha tasvirlangan. Qissa qahramon tilidan bayon qilinar ekan, asar sarlavhasini nega aynan bunday nomlaganini quydagi asar tahlili davomida ochib beramiz. Asar sarlavhasi "Xizr ko'rgan yigit" deya nomlanishiga sabab, bu qaramonimiz Qorjovning yoshlik chog'lariiga bog'liq va bu damlarni u shunday eslaydi:

"Aslida hammasi kech kuzning izg'irinli kechalaridan birida jo'ngina bo'lgan edi.

O'shanda Husan ikkovimiz qo'shni sovxoz fermasidan tovuq o'g'irlab kelgani ketayotgan edik. Biznikida sinfdoshlar yig'ilishib, bir ziyofat uyuştirmoqchi bo'lганmизда. Go'sht topish Husan ikkovimizning bo'ynimizga ilingan. Bir payt qangsharimizdagi qirda oppoq sharpa paydo bo'ldi. Hatto eshaklarimiz ham taqqa to'xtab o'sha yoqqa tikilib qolishdi. Husanning allaqachon rang-quti o'chgan.

— Arvo! O'lay agar, oq arvo bu! — vahimali pichirladi u arang. — Ilgari Kengsoyga shahidlar ko'milganini eshitganman, shularning arvo! — Hovliqma-e, — dedim qir tomon tikilib. Men do'stim aytgan "arvo", "shahid" degan so'zlarning ma'nosini anglab yetmaganidanmi, harnechuk qo'rqlmayotgan edim. Oq sharpa asta-sekin biz tomonga enib kelar edi. — Qochdik! — deya qichqirib yubordi Husan, eshagini ortga burib. Hurkibgina turgan jonivor jonholatda qistovdan yo'rtib ketdi. Men sarosimada qoldim. Biroq hanuz qiziqishim qitiqlab qo'ymas edi. Hurka-hurka orqaga qaytishga urinayotgan eshagimni bir amallab tinchlantirib oq sharpaga tikilib turaverdim. Nihoyat, do'stim ta'riflagan "arvo" yaqin keldi. Shundagina men uning oq ishton, oq yaktakdagi qariya ekanini tusmolladim. Eshagim ham odam nuqsini sezdi-yov, tinchlanib, xas-pas ilinjida yer iskab qoldi. Oq sharpa mulla Mirza ekan! Qo'y-qo'zilarini nevaralariga ishonmay o'zi boqib yuradigan, sakson yoshni qoralab qolgan o'zimizning qadrdon qariya!".[ 2.105.]

Inson hayotida bir zumda nimalar bo'lib ketmaydi. Yo'lda xizr (aslida- mulla Mirzo)ni ko'rishi va uni duosini olishi bilan bilan qahramonimizning hayoti tubdan o'zgarib, omadi chopa boshlaydi. Uning o'zi " Kechagina eshagiga qiyshiq mingan qishloqi edim, bugun esa ajabtovur mashina o'rindig'ida yastanib o'tiribman-a?! Nahotki, Xizr ko'rganim chin?!"[ 2.104.] deya taajjublanadi va hayotidan mammun quvonadi.

Ushbu qissada qahramon xarakterining qirralari xilma- xil bo'lganidek, uning ruhiy olamini ochuvchi monolog, kabi poetik vositalarning ham mazmun-mohiyati ancha teran. Hikoya qahramonlarning o'rtasida bo'lgan dialog va monologlar shunchaki oddiy so'zlashuvlar emas balki, qahramoning ruhiy holatini ochib beruvchi omildir. Shuningdek, hikoyadagi dialogni qo'llashning o'ziga xosligi shundaki, kitobxon obrazlarni kuzatar ekan, u ham ular bilan tasavvuri orqali qahramonlar hissiyotlarida birga yashaydi.

"Davr qahramoni qiyofasini badiiy adabiyotda "tiriltirish" ya'niy dialoglar orqali ularning qalbiga qulq sola bilishi yozuvchining yuksak mahoratidan darak beradi. Insonning ruhiy dunyosi o'zaro suhbatlarda, tortishuvlarda, dialog va monologlar vositasida ochiladi" [3.127.] Asardagi "Husan nuqlu maqtangani-maqtangan. Kelgusi yil maktabni bitirgach katta shaharga ketar ekan. Institutga kirar emish. To'g'risi, maqtanganicha bor qurg'urning – maktabda tuzukkina o'qiydi-da! Muallimlar ham biri qo'yib-biri olib uni alqashadi, "Husandan umidimiz katta, qishlog'imizning faxri bo'ladi", deb bashoratlar qilishadi. Menga esa o'qrayib qarashgani-qarashgan, hammasiga baland bo'yni, qoruvli qomatim aybdorday bosh chayqashadi: "Esiz jasad esiz kuch-quvvat. Ba'zan orim qo'zib, astoydil o'qishga bel bog'lab kitoblarga ko'milib o'tirgan paytlarim ham bo'lgan" [ 2.104] kabi monologlarida

anglashiladiki, Husan do'sti maqtanchoq ekanligi va doimo uni oldida o'qishga kiririshini aytishi qahramonimizga yoqmas edi chunki uning otasi cho'ponlik qilganligi bois unda o'qitishga mablag' muammosi bor edi, lekin otasi shunday sharoitda ham o'g'lini o'qitmoqchi bo'ladi hamda asarda dard ustiga chipqon bo'lgan ustozlari unga yaxshi bilim berish o'rniya yomon munosabatda bo'ldi. Shuningdek, uning tashqi qiyofasini "jasad " deya aytganligi va bu kabi salbiy muomalalar uning or-nomusiga tegibgina qolmay uning ruhiyatiga ta'sir qiladi. Professor X.Umurov psixologizmning tahlil vositalariga to'xtalar ekan, diologni "ikki sujetli" ("birinchi sujet" da qahramon hissiyoti va kechinmalari rivoji ularning nutqlari,mimikasi, imo-ishorasi orqali aks etsa, "ikkinchi sujet"da qahramon kechinmalari rivoji muallif tomonidan tushuntiriladi, ularga mualif baho beradi)deb ko'rsatadi". Ana shunday " ikki sujetli" dialoglar biz tadqiqot obyekti qilib olgan "Xizr ko'rgan yigit" qissasida ham psixologik funksiyani bajargan. Binobarin, Qorjovlarning uyiga tuman amalldorlari kelganda ularni yoqtirmaydi negaki, ular davlat mulkini akt (hujjat, dalolatnoma) tuzib o'zlariniki qilib olishardi. Va otasi boqayotgan qo'ylar ham akt tuzib o'zlariniki qilib olgandilar. Yilda kelib ziyofat, maishat qilib ketardilar. Bunday narsalar Qorjovga yoqmasdi, shuning uchun ham ba'zan suruvga ya'ni podalar oldiga ketib qolardi. Va bundan otasini jahli chiqardi.

— Nega bugun o'z boshingga tizinglab qolding? — deya so'radi otam, ko'ton yonidagi xarsangga o'tirar ekan. Mehmonlarning oldida uyaltirding-ku?! — Ular mehmonmas. — to'ng'illadim men ham cho'pon tayog'imga o'mgan tirab. — O'g'rilar tirik mollarni o'lida chiqarib. — Tavba, akt qilishganini endi ko'ryapsanmi? Har doim shunday-ku?! Buning nimasi orqangni kichityapti?

— Ota — dedim-u yana o'chib qoldim, butun dardu alamimni yaqqol ifodalaydigan so'zni topolmay qiynalardim.

— Ota, shu sizga zarilmi, a? Nima, ularning oldida muttaxammisiz, qulimisiz shu enag'arlarning? Davlat molining sho'rini quritib yotgan shular-ku? Shu quzg'unlar nima desa, doim ko'nasiz. — Xo'sh, nima qil, deysan? — Qo'lingizga tayoq olib quvlamaysizmi barini? Qo'yday bo'g'izlab tashlamaysizmi? — Nima uchun? Davlatning moliga akt tuzib o'ziniki qilib olgani uchunmi? Menga nima. Bokib yurgan suruvim o'zimnnki bo'limgandan keyin, menga nima farqi bor, davlatnikimi yo kattakonlarnikimi? A, nima farqi bor? [ 2.107] kabi jumlalarda, Qahramonimiz Qorjovni adolatsizlikka chidab turolmaydigan, adolatparvar inson qiyofasida tasvirlanganligini, biroq uning otasini ham tushuninsh darkor, chunki u ham qaysidir tomonlama oilasini boqishi, ro'zg'or tebratishi kerak edi.

Umuman aytganda, Luqmon Bo'rixon ijodi bir qarashda sodda, tushunarli, oddiy voqeani aks ettirgan ijodkordek tuyuladi, ammo undagi ifodalangan yozuvchi niyatini anglash, kitobxonni falsafiy mushohadaga chorlaydi. Qissalarini o'qish davomida, uning chin ma'noda ijodkor shaxs, izlanuvchan, yangilikka o'ch inson ekanligiga amin bo'lamiz.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbek qissalari poetikasi" T.2021.
2. Луқмон Бўрихон, "Хизр кўрган йигит: Қиссалар ва ҳикоялар. — Т.: «Шарқ», 2007
3. Xamro Abdullaev. Hozirgi o'zbek romanlarida talqin muammosi.2020.
4. U. Normatov. Tafakkur yog`dusi. T. Sharq. 2005.
5. O. Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T. Sharq. 2004.